


## YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–sentabrida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 15 910,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi.



YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 118,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.




### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>12 609,1</b>	<b>15 910,6</b>	<b>106,6</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 402,1	15 533,5	106,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	207,0	377,1	107,1
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>12 402,1</b>	<b>15 533,5</b>	<b>106,6</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>6 551,4</b>	<b>8 335,4</b>	<b>104,0</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 178,0</b>	<b>2 753,2</b>	<b>110,3</b>
	sanoat	1 261,0	1 816,5	113,8

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	917,0	936,7	105,6
	<b>Xizmatlar</b>	<b>3 672,7</b>	<b>4 444,9</b>	<b>109,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	727,5	939,9	114,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	458,3	566,1	113,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 486,9	2 938,9	106,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 11 183,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 53,7 % ni, sanoat tarmog'i 11,7 % ni, qurilish 6,0 % ni va xizmatlar sohasi 28,6 % ni tashkil qildi.




### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jami nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,4	97,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1,6	2,4
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>52,8</b>	<b>53,7</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>17,6</b>	<b>17,7</b>
	sanoat	10,2	11,7
	qurilish	7,4	6,0
	<b>Xizmatlar</b>	<b>29,6</b>	<b>28,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	6,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,7	3,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	20,0	18,9




**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 53,7 %), sanoatda – 113,8 % (11,7 %), qurilishda – 105,6 % (6,0 %), xizmatlar sohasida – 109,1 % ni (28,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,7 % (6,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,4 % (3,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,7 % dan (18,9 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,1 f.p. (2020- yil yanvar-sentabrda – 1,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2020- yil yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2020- yil yanvar-sentabrda salbiy – 0,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2020- yil yanvar-sentabrda – 0,06 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p.ga oshgan.




**2021- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi**



2021-yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 118,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 126,6 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 122,4 % qayd etildi.



## Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-sentabr oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 81,7 % ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-sentabrda – 83,0 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi Tel.: (72) 221-53-51